



FITRAT IJODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattorova Gulrux Otabek qizi

BuxDU Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya: ushbu maqolada milliy uyg‘onish davri adabiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati, dramatik asarlari to‘g‘risida so‘z boradi. Xususan, uning ijodida alohida o‘rin egallagan „Munozara“ hamda „Abulfayzxon“ singari dramalari tahlilga tortilgan. „Abulfayzxon“ dramasi har bir qahramonga to‘xtalib, ularning psixologik holatlari, ichki kechinmalari, toj-u taxt, halollik, insoniylik, adolat borasidagi qarashlari muallif tomonidan ochib berishga harakat qilingan. Shu bilan birgalikda, maqolada Fitrat taxallusining ma‘nolari va uni tanlash sababi haqida ham fikr-mulohazalar bayon etilgan bo‘lib, ular bir qancha manbalar asosida dalillab ko‘rsatilgan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни и творчестве Абдурауфа Фитрата, занимающего заслуженное место в литературе эпохи национального Возрождения, а также его драматических произведениях. В частности, анализируются такие его драмы, как «Мунозара» и «Абулфайзхан», занимающие особое место в его творчестве. Касаясь каждого персонажа драмы «Абулфайзхан», автор постарался раскрыть его психологические состояния, внутренние переживания, взгляды на трон, честность, человечность и справедливость. Вместе с тем в статье рассматривается и значение прозвища Фитрат. и обоснование его выбора высказываются мнения, которые обосновываются на основе нескольких источников.

Abstract: This article discusses the life and work of Abdurauf Fitrat, his dramatic works, and analyzes the drama "Abulfayzkhan", which occupies a special place in his work.



Kalit so'zlar: jadid, yozuvchi, shoir, jurnalist, jadid, dramaturgiya, badiiy adabiyot, drama tili.

Ключевые слова: джадид, писатель, поэт, журналист, драматургия, художественная литература, драматический язык.

Keywords: Jadid, writer, poet, journalist, Jadid, dramaturgy, fiction, dramatic language.

Kirish. Abdurauf Fitrat, shubhasiz XX asrning birinchi choragi Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko'zga ko'ringan va ta'sir doirasi kuchli bo'lgan vakillaridan biri hisoblanadi. U yozuvchi, shoir, jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g'oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan.

Fitratning yigirma besh yoshgacha, ya'ni 1910-yilgacha bo'lgan hayoti, faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bizga noma'lum. Ammo qachon va qanday oilada dunyoga kelgani ma'lum bo'lib, u 1886-yili savdogar oilasida tavallud topadi. Buxorolik shoira Nodira Afoqova "Fitrat" deb nomlangan she'rida shunday yozadi:

Ey Buxoro, zulmatlardan ey dilxun,
Ey yozig'i ulug'ligi bo'lgan yurt,
Hasratmidi, tolemidi, g'ammi, qut-
O'g'lon emas, yulduz tug'ding o'shal kun.

Fitrat boshlang'ich ta'limni eski usul maktabida olgach, o'qishini dastlab Buxorodagi Mir Arab madrasasida, undan keyin yana ayni shu hududdagi boshqa bir madrasada davom ettirgan. Aytishlariga qaraganda, Fitrat yosh bo'lishiga qaramay, Buxoro adabiy davralarida yetarli darajada mashhur va o'z o'rniga ega bo'lgan ekan. Bu kabi ma'lumotlar amirlik saroyida xizmat qilgan Ne'matulloh Muhtaramning "Tazkirayi Hoji Ne'matulloh Muhtaram" tazkirasida keltiriladi¹. U o'z she'rlarini "Mijmar" ("Yoqimli hid tarqatuvchi cho'g'don") taxallusi ostida bitgan. Ne'matulloh Muhtaram Fitratni Hoji Mulla Abdurauf, deb tilga oladi.

¹ Xo'ja Ne'matulloh Muhtaram. Tazkirat ush-shuaro. „Donish" nashriyoti. -1976. 214-bet.



Bundan ko‘rinadiki, Fitrat yoshlik chog‘ida haj amalini bajarish uchun sayohatga chiqqan va Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston hamda markaziy Rossiya – Moskva, Peterburg bo‘ylab sayohat qiladi. Fitrat o‘sha vaqtda haj safarining an‘anaviy yo‘li hisoblangan Hindiston orqali emas, balki temir yo‘l bilan Odessa, Turkiya orqali Arabistonga safar qilgan va Hindiston orqali Buxoroga qaytib kelgan.

Asosiy qism. Fitratning o‘z ma’lumotlariga ko‘ra dastlab jadidlarning harakatiga qarshi bo‘lgan va ayrim kishilarning ta’siri ostida unda yangi usuldagi maktablarga qiziqish paydo bo‘lib, jadidlar uni o‘ziga torta boshlagan. U buxorolik yoshlar orasida birinchilardan bo‘lib Turkiyaga o‘qishga bordi. 1910-1914-yillar davomida Turkiyada ta’lim olgan Fitrat Turkistonga anchagina mashhur shaxs sifatida qaytib keldi. Uning 1911-1912-yillarda Istanbulda nashr qilingan “Munozara” va “Bayonoti sayyohi Hindiy” kabi birinchi nasriy asarlari hamda “Sayha” she’riy to‘plami nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston bo‘ylab shuhrat qozondi. Sadriddin Ayniyning ta’biri bilan aytganda, Fitratning birgina “Munozara”si davr taraqqiyotiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatdi. [1.533]

XIX asrning oxirgi choragida Qrimda dunyoga kelgan “usuli jadid” maktablari Rossiya imperiyasining musulmonlar yashaydigan mintaqalarida keng tarqaldi. Ular Turkiston hududiga ham kirib kela boshladi. Lekin bu maktablar dinga zid degan tuhmat bilan bir guruh ulamolarning qarshiligiga uchradi. Bunday qarshilik, ayniqsa, 1908-yilda Buxoroda ta’sis etilgan yangi usul maktabiga nisbatan juda qattiq bo‘ldi. Ayni shu davrda Fitratning “Munozara” asari dunyoga keldi. U barcha ta’na-dashnomlar asossiz ekanligini asarda ilgari surgan fikr-mulohazalari orqali isbotlab berdi. Faqat shu asarning bosilib chiqishi tufayligina Buxoroda yangi usul maktablari qayta ochildi va ulardan mulla-mudarrislarining tavqi la’natlari olib tashlandi.

“Munozara”ning markazida buxorolik yoshlar tashkil etgan birinchi “usuli jadid” maktabi va uning atrofida paydo bo‘lgan janjal voqealari turadi. Ushbu



maktabning tarixiga qisqacha nazar tashlaydigan bo'lsak, maktab 1908-yil 5-oktabr kuni Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Homidxo'ja Mehriy va Ahmadjon mahdum Hamid tarafidan Abdulvohid Munzimning hovlisida ochiladi. Oradan bir yillar chamasi vaqt o'tgach, 1909-yil 6-sentabr kuni maktabda tantanali ochiq imtihon o'tkaziladi. Buxoroda jadid maktablarining ta'qiqiga olib kelgan voqealar ham aynan shu kuni sodir bo'ldi. Fitrat bu haqida oradan 20 yil o'tib yozgan maqolasida shunday eslaydi:

“1908-yilda yozganim bir asarimda Buxoro amiriga qaratilgan bir xatim bor. Lekin 8-yilda Buxoro xonligida hukm surgan diniy taassubni va shunga tayangan idora usuli hibs qilish, o'ldirish, sangsor qilish kundagi odatlardan edi. U zamonlarda kitob yozishning o'zi “kofirlik” edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarimni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta'lim-tarbiya usulini, bir ko'p rasmiy idoralarni tanqid qildim”.

“Munozara” Istanbulda chop etilganidan keyin Buxoroga turli yo'llar bilan yashirincha olib kelindi. “Munozara”ning asl forsha matni hatto 1914-yilda ham Rossiya imperiyasi hududiga olib kirilishi Peterburgdagi chet el nashrlari senzorigi tarafidan taqiqlandi. “Munozara” Mahmudxo'ja Behbudiyning yaqin zamondoshi va izdoshlaridan bo'lgan Hoji Muin ibn Shukrulloh tarafidan o'zbek tiliga o'girilib, oldin “Turkiston viloyatining gazetasi”da 1912-yilgi sonlarida, so'ng 1913-yili kitobcha holida Toshkentda bosilib chiqdi. Ushbu asarga dastlab Mahmudxo'ja Behbudi, so'ngra rus olimi V.Andreyevning taqrizlari e'lon qilindi.

Ayni shu davrda rus tili va rus madaniyatini targ'ib qilish ham Fitrat ma'rifatparvarligining asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'ldi. Bu kabi g'oyalar o'zining muharrirligi ostida nashr etiladigan “Hurriyat” gazetasida ham keng qamrovda targ'ib etilgan. Ayni shu yillarda “Hayot yo'lida birinchi masala – maktab masalasidir” degan g'oyatda ulug'vor shior, teran g'oya bilan chiqadi. Bunda Fitratning vaziyatni to'g'ri baholaydigan va uning yechimini ham ko'rsatib berish qobiliyatiga ega bo'lgan yuksak tafakkur egasi ekanligi namoyon bo'ladi.



Shuningdek, xuddi shu roʻznomada eʼlon qilingan yana bir fikr borki, bu ham hozirgi davrning yosh-u qarisi birdek oʻrnak olsa arzigulik. Chunki bu misralar chin vatanparvar inson qanday boʻlishi lozimligini eslatib turgandek goʻyo: “Men sen uchun tugʻildim, sening uchun oʻlarman, ey Turkistonning muqaddas oʻchogʻi”

Turkiyadan qaytgan Fitrat maktab ishlari bilan shugʻullanar ekan 1915-1916-yillar davomida qator asarlar ham nashr qildi. “Oila”, “Rahbari najot”, “Qisqacha islom tarixi” shular jumlasidandir. 1920-yillarda Fitratning “Chin sevish”, “Hind ihtilolchilari”, “Abo Muslim” dramalari sahna yuzini koʻradi va oʻz davrining mashhur adabiy munaqqidlari tarafidan juda iliq qarshi olinadi. Ayniqsa, uning bu davrdagi ijodi ozodlik va vatanparvarlik tuygʻulari bilan toʻlib toshgan edi. Yuqoridagi asarlarning barchasida bir maqsad – millat ozodligi, mustaqillik nashidasi, hurriyat, erkinlik mavzusi ilgari surildi. Bu holat uning sheʼrlarida ham yaqqol seziladi.

1917-yildan boshlab Fitrat maorif ishlaridan biroz chekinib, siyosiy faoliyat bilan shugʻullana boshladi. Buxoro jadidlarining tashabbusi bilan tuzilgan “Yosh buxoroliklar” partiyasi sarkotibligi vazifasini bajardi. Samarqandda nashr qilingan “Hurriyat” gazetasida avval faol muallif sifatida qatnashgan boʻlsa, qisqa vaqt oʻtishi bilan uning bosh muharriri sifatida faoliyat olib bordi.

Fitrat bu davrda Rossiyadagi Muvaqqat hukumat bilan oʻzaro tenglik asosida aloqalarni yoʻlga qoʻyish boʻyicha koʻplab maqolalari bilan siyosiy faoliyatini davom ettirdi. Ammo Fitrat orzu qilgan tenglik, hurriyat orzusi bolsheviklar sababli chilparchin boʻladi. Shu sabab bolsheviklar tomonidan uyushtirilgan 1917-yil oktabr toʻntarishini “yurt qaygʻusi” sifatida qabul qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidulla Boltaboyev. Fitrat va Jadidchilik. Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent 2007



2. Hamidullo Boltaboyev. Abdurauf Fitrat. –Toshkent.: —Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
- 3.. Fitrat A. Tanlangan asarlar 1-jild – Toshkent.: —Ma`naviyat, 2000 yil.
4. Ғаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Тошкент, 1994.